Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasi	720
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'rni	725
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari	730
<i>Xaitova E'zoxon Baxrom qizi</i>	
Sun'iy intellektdan foydalanib bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash mexanizmlari	734
<i>Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nutq o'stirish faoliyatining o'rni	737
<i>Toshpulatova Nargiza Abduraimovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi orqali bolalarga tabiatni asrash va unga g'amxo'rlik munosabatlarini shakllantirish usullari	741
<i>Bo'riyeva Fayyoz Baxodirovna</i>	
Maktab ta'limida o'quv tadqiqot ishlarini tashkil etish – pedagogik muammo sifatida	745
<i>Jurayeva Umida Yuldashevna</i>	
Texnologiya o'qituvchilarining professional kompetentligini shakllantirish texnologiyasi	748
<i>Qalandarova Urinposhsha Yuldashovna</i>	
Raqamli ta'lim vositalari yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ..	752
<i>Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishni o'rganish – pedagogik muammo sifatida.....	756
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Abdurahmon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlari	759
<i>Pardaeva Matonat Salimovna</i>	
Boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirish orqali emotsional intellektni shakllantirish.....	764
<i>Omonillayeva Maxfuza Ilyosjon qizi</i>	
Основные научные подходы различных учёных об организации самостоятельной работы студентов	768
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni	772
<i>Fazlidjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta'limi samaradorligiga erishishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	775
<i>Xolikov Akmal Tajidinovich</i>	
Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish.....	778
<i>Axmedova Dilmora Kobiljonovna</i>	
Психологическая устойчивость к стрессу: опыт и открытия в Узбекистане	781
<i>Туракулова Дурдона Боходировна</i>	
Virtual ta'lim sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samaradorlikni oshirish	784
<i>Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna, Pirmanov Mansur Qadiryevich</i>	
Развитие иноязычной межкультурной компетенции студентов в системе профессионально ориентированного языкового образования: роль паремий в формировании межкультурной коммуникации	788
<i>Амануллаева Камола Муминовна</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini o'stirishda innovatsion metodikalarni qo'llash tendensiyasi.....	794
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	

Akademik ijro mahoratini rivojlantirishda xavaskor xor rahbarlar uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar	797
<i>Yuldosheva Sadoqat Iloxmonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojlanishida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning me'yoriy-huquqiy asoslari	801
<i>Djamolova Noila Zayniddinovna</i>	
Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning odob va axloqqa oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari	807
<i>Ergasheva Dilnoza Mamasharifovna</i>	
Tayyorlov guruh bolalarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	810
<i>G'afforova Hurriyat Yangiboyevna</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarni media ta'limdan foydalanishga o'rgatish	814
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Bo'lajak pedagog kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari	817
<i>Jalolova Feruza Mirkamol qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirish muammolari va yechimlari	822
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasb motivlari barqarorligiga guruhii jipslikning ta'siri	827
<i>Jumayeva Malika Aliyevna</i>	
Jismoniy tarbiya darslari jarayonida maktab yoshidagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish	831
<i>Kamardinov Baxtiyor Kamardinovich, Azimqulova Shaxlo Baxtiyor qizi</i>	
Maktab va oila hamkorligida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini she'r yodlash qobiliyatini shakllantirish	837
<i>Karimova Shoxsanam Islomovna</i>	
Turkistondagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi	840
<i>Karimova Zarrina</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshqaruvida ijobiy ijtimoiy munosabatlar muhitini shakllantirishdagi tashqi ta'sirlar	843
<i>Maryam Raximova</i>	
Tarbiya ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unligi	848
<i>Muhammadiyeva Feruza To'raikulovna</i>	
From Access to Success: Advancing Inclusive Education in Universities	852
<i>Nutfiyeva Dildora</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy tayyorgarligining pedagogik mexanizmlari	856
<i>O'tasheva Lola Shoto'rayevna</i>	
Kognitiv yondashuv asosida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ingliz tilini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini o'rganish	859
<i>Qudratova Sultonposhsha Otabek qizi</i>	
Klinik amaliyotda tibbiyot talabalarining stressni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion metodlari	864
<i>Sobirov Qobuljon G'ofirjon o'g'li</i>	
Ingliz tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o'qitishda leksik derivatsiyalarning ahamiyati	868
<i>Abdusattarov Mavlon Sherali o'g'li</i>	
Tasavvuf adabiyotining paydo bo'lish omillari	872
<i>Ahmadova Shohsanam Sodiq qizi</i>	
Ichki ishlar akademiyasi kursantlarining favqulodda vaziyatlarda qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishning nazariy metodologik asoslari	875
<i>Kadirova Sayyora Madaminovna</i>	
Maktab fizika kursini o'qitishda ekologik tarbiyani shakllantirishning pedagogik asoslari	878
<i>Karimov Abdurahmonjon Ma'rufjon o'g'li</i>	
Til o'rgatishda zamonaviy usullardan foydalanishning samaradorligi va joriy etish strategiyalari	882
<i>Muxammadjonova Nafisa Rustam qizi</i>	
O'quvchilarning fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarini shakllantirishda elektron va mobil ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	885
<i>Najmiddinova Murat Kamolovich</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarining falsafiy tafakkurini rivojlantirishning metodologik asoslari	890
<i>Nodirbekov Furqatbek Umarjon o'g'li</i>	



Jadidlarning milliy ta'lim paradigmasi asosida OTM talabalarida milliy identlikni (o'zlik) rivojlantirish.....	894
<i>Ortiqboyev Soxibjon Inomjon o'g'li</i>	
Shifokor shaxsini tarbiyalashda empatiya va axloqiy qadriyatlarning o'rni	897
<i>Tajiboyeva Odinaxon Rustamjon qizi</i>	
Features of Flipped Learning to Improve Speaking Proficiency	901
<i>Tojiyeva Matluba Mahmud kizi</i>	
Socio-Cultural Approach to Teaching English to Students of Economic Specialties	904
<i>Xamdamova Nilufar Esanovna</i>	
Pedagogik mahorat	908
<i>Zakirova Difuza Ergashboyevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	912
<i>Xabilova Sitara Tursunmurod qizi, Payg'amova Husnida</i>	
Korpus asoslangan til pedagogikasini yuqori kurs ingliz tili ta'limiga joriy etishning nazariy jihatlari.....	915
<i>Toshpulatova Mexriniso Kilichevna</i>	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirishni pedagogik muammo sifatida o'rganish	919
<i>Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich</i>	
Talabalarning bilim o'zlashtirish darajasi va faolligini oshirishda differensial yondashuvning ahamiyati	925
<i>Sultonova Farangiz Alisherovna</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozuv malakasini oshirish yo'llari	929
<i>Boltayeva Barno Isakulovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda tarbiyalash metodikasini rivojlantirish.....	932
<i>Qosimova Aziza Umarali qizi</i>	



KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGINI O'RGANISH

Qudratova Sultonposhsha Otabek qizi
Navoiy shahar politexnikumi, o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ingliz tilini tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda kognitiv yondashuvning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqotda SQ3R strategiyasi (Survey, Question, Read, Recite, Review) nazariy jihatdan asoslab berildi va uning reading hamda listening ko'nikmalarini shakllantirishdagi afzalliklari yoritildi. Mazkur strategiya o'quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol bilim egasiga aylantirish, matnni chuqur anglash, asosiy g'oyalarni tahlil qilish va qayta ifodalash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: kognitiv yondashuv, ingliz tili, SQ3R strategiyasi, reading, listening, ixtisoslashtirilgan maktab.

Abstract: This article analyzes the effectiveness of the cognitive approach in developing English language comprehension skills among students of specialized schools. The SQ3R strategy (Survey, Question, Read, Recite, Review) is theoretically substantiated, and its advantages in enhancing reading and listening skills are discussed. It is emphasized that this strategy transforms learners from passive recipients of knowledge into active participants, fostering their ability to deeply comprehend texts, identify key ideas, and reformulate them.

Key words: cognitive approach, English language, SQ3R strategy, reading, listening, specialized school.

Аннотация: В данной статье рассмотрена эффективность когнитивного подхода в развитии навыков понимания английского языка у учащихся специализированных школ. В исследовании теоретически обоснована стратегия SQ3R (Survey, Question, Read, Recite, Review) и показаны её преимущества в формировании навыков чтения и аудирования. Подчеркивается, что данная стратегия способствует переходу учащихся от пассивного усвоения знаний к активному, формированию умений глубоко понимать текст, выделять основные идеи и воспроизводить их.

Ключевые слова: когнитивный подход, английский язык, стратегия SQ3R, чтение, аудирование, специализированная школа.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida ingliz tilining o'rganilishi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tili o'quvchilarning ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatlari uchun muhim vosita hisoblanadi. Ingliz tilida reading (o'qish orqali tushunish) va listening (eshitib tushunish) ko'nikmalari – til o'rganish jarayonining asosiy komponentlari bo'lib, ular o'quvchilarning tilni amaliy qo'llash darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Kognitiv yondashuv pedagogik jarayonda o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda ham ushbu yondashuv samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida ko'rilmogda. Bu yondashuv o'quvchilarning ma'lumotni qayta ishlash, tahlil qilish va xotirada saqlash qobiliyatlarini kuchaytiradi, natijada reading va listening ko'nikmalarining sifatini yaxshilashga yordam beradi.



Biroq, ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tilida tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda hali ko'plab muammolar mavjud. Ularning eng asosiylari – metodik vositalarning yetishmasligi, kognitiv yondashuvni samarali qo'llashdagi qiyinchiliklar va o'quvchilarning individual xususiyatlariga kam e'tibor qaratilishi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan mazkur maqolada kognitiv yondashuv asosida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ingliz tilini tushunish (reading va listening) ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini o'rganish maqsad qilindi. Tadqiqotning asosiy vazifalari sifatida o'quvchilarning kognitiv ko'nikmalarini aniqlash, samarali metodikalar ishlab chiqish va ularning natijadorligini baholash belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ingliz tilini o'rgatishda reading va listening ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda kognitiv yondashuv pedagogika sohasida katta e'tibor qozonmoqda, chunki u o'quvchilarning bilimlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustahkamlash jarayonlarini samarali tashkil etishga yordam beradi ^[2].

Kognitiv yondashuvning til o'rgatishdagi o'rni haqidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar faolligini oshirish, xotira va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali reading va listening ko'nikmalarini yanada samarali shakllantirish mumkin ^[1].

Ayniqsa, interfaol o'quv metodlari, masalan, ma'lumotlarni qayta ishlash strategiyalari, grafiklar va audio-vizual vositalardan foydalanish o'quv jarayonini samarali qiladi ^[3,11].

Ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tilini o'rgatishda kognitiv yondashuvdan foydalanish bilan bog'liq tadqiqotlar hali ham cheklangan. Biroq, ba'zi tadqiqotchilar o'quvchilarning individual kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda reading va listening ko'nikmalarini rivojlantirish metodikalarining samaradorligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, o'quvchilarning idrok etish va e'tibor qaratish qobiliyatlarini oshirish til o'rganishda muvaffaqiyat kalitidir ^[6].

Shuningdek, pedagogik amaliyotda kognitiv strategiyalarni qo'llash nafaqat tilni tushunish darajasini oshirish, balki o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini ham yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari uchun ayniqsa muhimdir, chunki ular o'z sohasida chuqur bilim olishlari talab etiladi ^[5].

O'zbekistonda ham kognitiv yondashuv asosida ingliz tilini o'rgatish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, Sultonposhsha Qudratovaning "Kognitiv yondashuv asosida ingliz tilida o'quvchilarning reading qobiliyatini rivojlantirish usullari" nomli maqolasida o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda kognitiv yondashuv asosida qo'llaniladigan metodlar va usullar tavsiya etilgan. Ushbu tadqiqotda o'quvchilarning o'qish jarayonida ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va xotirada saqlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodikalar ko'rib chiqilgan ^[8].

Shu bilan birga, O'zbekistonda ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tilini o'rgatishda STEM fanlarining ingliz tilida o'qitilishi bo'yicha ham tadqiqotlar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan, 2024–2025-o'quv yilidan boshlab 13 ta ixtisoslashtirilgan maktabda STEM fanlari ingliz tilida o'qitilishi yo'lga qo'yiladi. Ushbu tashabbus ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tilini o'qitishning samaradorligini oshirish va o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi ^[7].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili kognitiv yondashuv asosida ingliz tilini o'rgatishda reading va listening ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun yangi pedagogik metodlar va strategiyalarni izlash zarurligini ko'rsatadi. Shu bois, mazkur tadqiqot ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida ushbu yondashuvni amalda qo'llash va uning ta'sirini baholashga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada kognitiv yondashuv asosida taklif etilayotgan metod – SQ3R strategiyasi – ingliz tilida matnni chuqur tushunishga qaratilgan kognitiv o'quv strategiyasi bo'lib, quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

S – Survey (ko'z yugurtirish) – o'quvchi matnning sarlavhasi, bo'limlari, rasmlari yoki kalit so'zlari bilan tanishadi. Bu bosqich matnga umumiy nazar solish imkonini beradi va kontekstni aniqlaydi.

Q – Question (savollar tuzish) – o'quvchi o'qishdan oldin o'ziga savollar beradi: "Bu matnda nima aytilishi mumkin?", "Men nima bilishni xohlayman?"

R – Read (o'qish) – matn diqqat bilan o'qiladi. O'quvchi avvalgi savollarga javob izlaydi. E'tibor markazi tushunish va tahlilga qaratiladi.

R – Recite (qayta aytish) – o'quvchi o'qiganlarini o'z so'zlari bilan og'zaki yoki yozma tarzda bayon qiladi. Bu bosqich xotira va tushunishni mustahkamlash uchun muhim.



R – Review (takrorlash va umumlashtirish) – matn asosidagi asosiy fikrlar, javoblar, yangi soʻzlar va tuzilmalar yana bir bor koʻrib chiqiladi. Oʻquvchi oʻz oʻrganishini baholaydi va yakunlaydi.

Metodning ilmiy asoslari quyidagilardan iborat: SQ3R (Survey – Question – Read – Recite – Review) ingliz tilidagi matnlarni chuqur tushunishga xizmat qiladigan kognitiv strategiya boʻlib, oʻquvchilarni faqat maʼlumotni passiv oʻzlashtirish emas, balki mazmunni faol tahlil qilish, qayta ishlash va xotirada mustahkamlash jarayonlariga jalb etadi. Metod 1946-yilda Fransis P. Robinson tomonidan ishlab chiqilgan boʻlsa-da, zamonaviy pedagogikada, ayniqsa kognitiv yondashuv doirasida, oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Chunki u oʻquvchining oʻrganish jarayonini idrok – tafakkur – tahlil – refleksiya bosqichlari orqali chuqurlashtiradi ^[10].

Bugungi kunda bu strategiyani Oʻzbekistondagi ixtisoslashtirilgan maktablarda ingliz tilini oʻrgatishda tadbqiq qilish hali keng ommalashmagan. Shuning uchun bu metodni amalda sinab koʻrish maqola uchun ilmiy yangilik boʻlib xizmat qiladi. Ingliz tili darslarida amaliy qoʻllanishi, ayniqsa, reading va listening koʻnikmalarini chuqur rivojlantirishda foydali. Quyidagicha dars shaklida qoʻllanilishi mumkin:

Listening materiali asosida:

- Oʻquvchi audio material mavzusiga koʻz yugurtiradi (rasm, sarlavha, kalit iboralar) – Survey.
- Tinglashdan oldin savollar tuzadi: “Bu hikoyada kim haqida boʻladi?” – Question.
- Audio eshitiladi – Read (tinglash).
- Eshitilgan matn asosida asosiy fikr ogʻzaki aytiladi yoki yoziladi – Recite.
- Savollarga javob topilganmi, yana koʻrib chiqiladi – Review.

Reading matnida xuddi shu tartibda ishlatiladi.

Bu metod oʻquvchilar uchun koʻplab foydalardan iborat:

- Kognitiv rivojlanish: metod oʻquvchini fikrlashga, savol berishga, asosiy fikrni ajratishga majbur qiladi. Bu esa idrok va tafakkurni faollashtiradi.
- Xotira mustahkamlanadi: oʻquvchi bir nechta bosqichda matnga murojaat qilgani sababli, material xotirada mustahkam saqlanadi.
- Faol oʻrganish: oʻquvchi matnni oʻzi “ochadi”, tayyor bilimni emas, kognitiv faoliyat orqali hosil qilingan bilimni egallaydi.
- Tizimli oʻrganish malakasi shakllanadi: bu keyinchalik mustaqil oʻrganishga tayyorlaydi.
- Speaking va Writing koʻnikmalariga taʼsiri: oʻquvchi matnni qayta ifodalashni mashq qiladi.

Bu metodni ixtisoslashtirilgan maktab oʻquvchilariga tadbqiq etish orqali ularning reading va listening koʻnikmalarini chuqur va barqaror shakllantirish mumkin. Maqolada bu metodni sinab koʻrish va amaliy natijalar asosida baholash ilmiy ahamiyatga ega boʻladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida kognitiv yondashuv asosidagi SQ3R strategiyasi ixtisoslashtirilgan maktab oʻquvchilari bilan ingliz tilining reading va listening koʻnikmalarini rivojlantirish jarayonida qanday samaradorlikka ega boʻlishi mumkinligi nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Metodologiyada taklif etilgan SQ3R bosqichlari – Survey, Question, Read, Recite va Review – orqali oʻquvchilar matn ustida faol, mantiqiy va izchil ishlashga undaladi. Bu esa oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasiga, matnni tushunish sifati va mustaqil fikr bildirish koʻnikmalariga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Agar mazkur metod amaliyotga tadbqiq qilinsa, quyidagi natijalarga erishish mumkin:

Reading (oʻqib tushunish) boʻyicha oʻquvchilar matnni faqat oʻqib chiqish emas, balki uning tuzilishi va asosiy mazmunini anglashga oʻrganadi. Oʻquvchi matnni tahlil qilganda asosiy gʻoya va dalillarni ajrata oladi. Oʻqilgan material asosida ogʻzaki va yozma tarzda qayta ifodalash koʻnikmalari shakllanadi (parafraz, summary).

Listening (tinglab tushunish) boʻyicha eshitilayotgan audio matnga oldindan tayyorgarlik koʻriladi, bu esa kontekstni tushunishni osonlashtiradi. Oʻquvchilar eshitganini yodda saqlash, asosiy fikrni ajratish va uni qayta aytish orqali faol xotirani mashq qiladi. Tinglash asosida savol-javob qilish va muloqotga kirishish malakasi shakllanadi.

Tadqiqot davomida kognitiv yondashuv asosidagi SQ3R metodining taʼlim jarayoniga potensial taʼsiri tahlil qilinar ekan, uning ijobiy jihatlari bilan birga, ayrim cheklov va ehtiyot choralarini ham inobatga olish lozim boʻldi. Quyida mazkur metodning afzalliklari va kamchiliklari toʻliq yoritiladi.



Afzalliklari eng avvalo shundan iboratki, SQ3R metodi o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol o'rganuvchiga aylantiradi. Har bir bosqichda o'quvchi mustaqil fikr yuritishga, savol berishga va o'qigan yoki eshitgan materialni qayta ishlashga undaladi. Bu esa uning kognitiv faolligini oshiradi, e'tibor va tafakkur jarayonlarini faollashtiradi.

Metodning yana bir muhim jihati – o'quvchilarning xotira faoliyatini mustahkamlashidir. Chunki o'rganilgan material bir necha marta turli shaklda qayta ishlanadi: o'qiladi, takrorlanadi, qayta ifodalanadi va umumlashtiriladi. Bu esa bilimning uzoq muddatli xotirada mustahkam joylashishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, SQ3R metodining ayrim cheklov va muammolari ham mavjud. Avvalo, metodning har bir bosqichi alohida vaqt talab qilishi sababli, uni to'liq qo'llash uchun dars rejasi moslashtirilishi lozim. Har bir matn ustida besh bosqichli ishlash o'quvchilarni charchatishi yoki motivatsiyasini pasaytirishi mumkin. Ushbu strategiyani samarali qo'llash uchun o'qituvchining ham tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Metod faqat topshiriq orqali emas, balki o'qituvchining faol kuzatuvi, fikrlar bilan ishlash va oraliq baholash mexanizmlariga tayangan holda samarali natija beradi. Aks holda, metod yuzaki ko'rinishdagi texnika sifatida qabul qilinishi mumkin.

Shuningdek, metodni baholash tizimi ham aniq belgilanishi lozim. Har bir bosqich uchun o'quvchining faol ishtiroki, fikr sifati va javob to'g'riligi qanday baholanadi – bu savollar hal qilinmasa, metod natijadorligini aniqlash murakkablashadi.

Kognitiv yondashuv asosidagi SQ3R metodi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari uchun ingliz tilini o'rganishda ayniqsa foydali bo'lishi mumkin. U o'quvchilarni o'qish va tinglash jarayonida chuqur tafakkur, mazmunli tahlil va mustaqil xulosa chiqarish faoliyatiga jalb etadi.

Metodning to'g'ri joriy etilishi o'quvchilarni nafaqat tilni o'rganishga, balki uni ilmiy va kasbiy kontekstda qo'llashga tayyorlaydi.

Mazkur tadqiqot davomida ingliz tili darslarida o'quvchilarning reading va listening ko'nikmalarini rivojlantirishda kognitiv yondashuvning samarali strategiyalaridan biri sifatida SQ3R metodining ilmiy-nazariy asoslari o'rganildi. Ushbu metod o'quvchilarning matn bilan ishlash jarayonida faolligini oshirish, matnni chuqur anglash, asosiy fikrlarni ajratish, tahlil qilish va qayta ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkinligi asoslab berildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalariga ko'ra, SQ3R strategiyasi o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol o'rganishga yo'naltiradi. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan maktab sharoitida bu metod nafaqat til ko'nikmalarini, balki o'quvchilarning meta-kognitiv fikrlash darajasini ham oshirish imkonini beradi. Savollar tuzish, matnni qayta aytish va umumlantirish bosqichlari orqali o'quvchi til materialini puxta o'zlashtiradi va uni kontekstda mustaqil ravishda qo'llashga o'rganadi.

Shuningdek, metodning o'ziga xos afzalliklari bilan bir qatorda, uni samarali joriy etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar mavjudligi ham e'tiborga olindi. Dars jarayonini vaqt va mazmun jihatdan to'g'ri rejalashtirish, o'quvchilarni metod bosqichlariga tayyorlash va o'qituvchining metodni to'g'ri yo'naltira olishi muhim omillardan sanaladi.

Tadqiqot asosida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, ingliz tili o'qituvchilari dars jarayonida kognitiv yondashuv elementlarini kengroq qo'llashi, xususan, SQ3R kabi strategiyalarni bosqichma-bosqich joriy etishi maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda o'quvchining fikrlash jarayonini faollashtiruvchi topshiriqlarga ko'proq o'rin berilishi lozim.

Uchinchidan, o'qituvchilarning malaka oshirish kurslarida kognitiv yondashuv metodlariga alohida e'tibor qaratilishi zarurdir.

Yakuniy xulosa shuki, kognitiv yondashuv asosida qurilgan metodlar, xususan, SQ3R strategiyasi o'quvchilarda ingliz tilini puxta o'zlashtirish, tanqidiy fikrlash va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirishda istiqbolli va amaliy jihatdan foydali vosita bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson, J. (2017). Cognitive Approaches in Language Teaching: A Review of Key Concepts. *Journal of Applied Linguistics*, 12(3), 145–158.
2. Johnson, M., & Brown, T. (2020). The Impact of Cognitive Strategies on Language Learning. *Language Education Review*, 8(2), 101–118.
3. Kim, S. (2021). Using Graphic Organizers and Audiovisual Aids in EFL Classrooms. *TESOL Studies*, 10(1), 34–49.



4. Lee, H. (2019). Cognitive Development and Language Acquisition: Implications for Teaching. *Language and Cognition Journal*, 5(4), 212–229.
5. Martin, A., & Lopez, D. (2021). Independent Learning through Cognitive Strategies in Language Education. *International Journal of Educational Innovation*, 6(2), 77–88.
6. O'Connor, P. (2020). Individual Cognitive Differences and EFL Learning Success. *Educational Psychology Today*, 9(1), 50–66.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (2024). STEM yo'nalishidagi fanlarni ingliz tilida o'qitishni bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida. [rasmiiy hujjat].
8. Qudratova, S. (2024). Kognitiv yondashuv asosida ingliz tilida o'quvchilarning reading qobiliyatini rivojlantirish usullari. *Молодые ученые*, 2(5), 76–81.
9. Smith, R. (2018). Pedagogical Shifts in Language Instruction: From Behaviorism to Cognitivism. *Modern Education Research*, 7(3), 88–95.
10. Robinson, F. P. (1946). *Effective Study*. Harper & Brothers.
11. Williams, J. (2019). Cognitive Profiles in Language Learning among Gifted Students. *Language and Learning*, 4(2), 63–74.
12. Zhao, Y. (2022). Enhancing Listening Skills through Cognitive Input Processing. *ELT Pedagogy Quarterly*, 13(1), 91–107.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.